
TOMORQA - QO'SHIMCHA DAROMAD MANBAI



Qo'shtepa tumanida o'z xonadonida ichki imkoniyatlardan foydalanib, mehnati ortidan rizq topayotgan oilalar juda ko'p. Jumladan, O'qchi MFYda istiqomat qiluvchi Sul'tonovlar oilasi ham huddi shunday oilalardan hisoblanadi.



Oila boshlig'i Davlatjon Sul'tonov hokim yordamchisi tavsiyasi asosida 2022 yilning avgust oyida 20 mln. so'm imtiyozli kredit olib tadbirkorlikni 6 dona qo'y bilan boshladi. Bugun ularning soni 20 taga yetdi.

Qolaversa, bu oila xonadonidagi 3 sotix issiqxonadan yiliga 2-3 marotaba hosil olib, 10 mln. so'mga yaqin daromad topadi. Asosan issiqxonada qulupnay, qalampir, pomidor yetishtiriladi.

Berilgan ushbu imkoniyatdan foydalanib ham oila daromadini oshirib, ham xalqimiz dasturxonini to'kin bo'lishida o'z hissalarini qo'shayotgan bunday ibratli oilalar soni ortaversin.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-04-01 11:59:05